

**RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI
FILOLOGIYA KAFEDRASI**

**“YANGI RENESSANS ISTIQBOLIDA FILOLOGIK-
PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA
AMALIY AHAMIYATI”**

**mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

Toshkent-2024

3-SHO'BA

TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUV

KABULOVA U.S. Сложная структура современных пословиц и поговорок.....	397
BOLTABAYEV Saidbek Til tarixi darslarini o'qitishda matn asosli yondashuv.....	407
MAXKAMOVA M.Y. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli.....	421
MAXKAMOVA M.Y. Oliy maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari.....	427
ERGASHEVA Gulruxsor Nurmatzod O'zbek tilini xorijiy til sifatida a2 va b1 darajadagi til o'rganuvchilarni o'qitishning o'ziga xosliklari.....	435
TURG'UNOVA Nilufar Muhiddin qizi Ona tilini o'qitishda loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid so'rovnoma tahlili.....	442
SIDDIQOVA Nozima Azizjon qizi, USMONOVA Bibixonim Azizjon qizi Chet tili darslarida formativ baholash texnologiyasidan foydalanish.....	450
AMINOVA F.A. 5-6-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muammo va istiqbollari.....	454

4-SHO'BA

QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

MIRZAEVA Zulkhumor Inomovna Politics under the mask of poetics: Cho'lpon's translations in the 1920s-1930s	459
SOBIROVA Ranokhan Khakimovna "Artistic and creative skills in Abdullah Qadiriyy's works"	476
RUZMATOVA Nigora Nodir qizi Adabiy tarjimadagi ekvivalentlarning madaniy muammolari.....	480
BEGJANOVA Djamila Arislanbayevna Paremiologiya: zamonaviy tadqiqotlarda maqollarning madaniy va lingvistik boyligini o'rganish.....	486
MIRZAKHIDOVA M.I., SAIDRAHIMOVA. D.S. Synchronous-comparative analysis of adverbial lexemes in the kyrgyz and uzbek languages.....	492

ONA TILINI O'QITISHDA LOYIHA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHGA OID SO'ROVNOMA TAHLILI

TURG'UNOVA Nilufar Muhiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

tayanch doktoranti

nilufarturgunova20@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablari ona tili fani o'qituvchilari orasida ona tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma tahlili yoritilgan. so'rovnomada o'qituvchilarga til o'qitishda loyiha texnologiyasining samaradorligi, ona tili darslarida o'quv loyihalari bilan ishlash, loyiha turlari, o'tkazilish bosqichlari kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi savollar bilan murojaat qilingan. O'qituvchilar tomonidan berilgan javoblar, fikr hamda tavsiyalar o'rganib chiqilib, ilmiy tadqiqot uchun zaruriy xulosalar olingan.

Kalit so'zlar: *so'rovnoma, ona tili ta'limi, loyiha texnologiyasi, o'quv-loyihaviy faoliyat, loyiha natijasi, dastur, darslik, mashq daftari.*

Abstract

The article describes the analysis of a survey conducted among teachers of the subject of the mother tongue of secondary schools on the use of project technology in the education of the mother tongue. In the questionnaire, teachers were addressed with questions containing information such as the effectiveness of project technology in language teaching, work with educational projects in native language classes, project types, stages of implementation. The answers, opinions and recommendations given by the teachers were studied and necessary conclusions for scientific research were obtained.

Key words: *questionnaire, mother tongue education, project technology, educational project activity, project result, program, textbook, exercise book.*

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda loyiha texnologiyasidan foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lingvodidaktika yo'nalishida esa, asosan, ma'lum bir tilni xorijiy til sifatida o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning ahamiyati bo'yicha ilmiy ishlar e'lon qilingan. Ona tili ta'limida esa loyihaga asoslangan topshiriqlarga murojaat qilinayotganiga ko'p bo'lgani yo'q, xususan, ona tilini o'qitishda loyiha texnologiyasidan foydalanishning samaradorligini aniqlash, ona tili darslarida foydalanish mumkin bo'lgan loyihaviy topshiriqlar, ularga qo'yiladigan talablar, o'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish kabi masalalarning nazariy-metodik taraflari hali to'liq o'rganilmagan. Tadqiqot davomida shu kabi masalalarga ilmiy jihatdan yechim topish, metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan avval o'qituvchilarning fikrlarini o'rganishni muhim deb topdik. Shu maqsadda maktabda faoliyat yurituvchi ona tili fani o'qituvchilarining loyiha texnologiyasi haqidagi mavjud bilimlarini aniqlash hamda ona tili ta'limida texnologiyalardan foydalanish bo'yicha fikr-mulohazalari va tavsiyalarini o'rganib, tahlil qilishga qaratilgan so'rovnoma ishlab chiqildi.

So'rovnoma ayni damda maktabda faoliyat yuritayotgan ona tili fani o'qituvchilari orasida o'tkazilgan bo'lib, unda davlat umumta'lim maktablari o'qituvchilari bilan birgalikda xususiy maktablarda ta'lim beruvchi jami 92 nafar o'qituvchi ishtirok etdi.

So'rovnoma quyidagi hududlarda faoliyat yurituvchi o'qituvchilarni qamrab olgan bo'lib, qaysi hududdan necha nafar ishtirokchi qatnashganini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

No	Hudud	Ishtirokchi soni
1.	Toshkent shahri	24 nafar
2.	Toshkent viloyati	21 nafar
3.	Qashqadaryo viloyati	14 nafar
4.	Xorazm viloyati	6 nafar
5.	Buxoro viloyati	6 nafar
6.	Samarqand viloyati	5 nafar
7.	Surxondaryo viloyati	4 nafar
8.	Sirdaryo viloyati	3 nafar
9.	Jizzax viloyati	3 nafar
10.	Andijon viloyati	2 nafar

11.	Namangan viloyati	2 nafar
12.	Navoiy viloyati	2 nafar

So'rovnoma ochiq va yopiq turdagi quyidagi savollarni o'z ichiga olgan:

1. Loyiha texnologiyasi haqida ma'lumotga egamisiz?
 - a) ha, ma'lumotga egaman;
 - b) qisman xabardorman;
 - d) yo'q, ma'lumotga ega emasman.
2. Loyiha texnologiyasi – bu...
3. Berilgan topshiriqlardan qaysi birini loyiha texnologiyasi uchun mos deb hisoblaysiz?
 - a) berilgan matnni sintaktik jihatdan tahlil qilish;
 - b) matnni o'qish va qayta hikoyalash;
 - d) shevaga oid so'zlar lug'atini tuzish;
 - e) so'z turkumlarini klaster yordamida tarmoqlash.
4. Keltirilgan ma'lumotlardan qaysi biri loyiha texnologiyasi uchun tegishli emas deb hisoblaysiz?
 - 1) o'quvchilar topshiriqni individual yoki jamoaviy tarzda bajarishlari mumkin;
 - 2) o'quvchilar faoliyati erkin yo'lga qo'yiladi, loyiha bajarish muddati aniq belgilanmaydi;
 - 3) loyiha natijalari o'quvchilarni yakuniy baholash uchun asos bo'la olmaydi;
 - 4) o'quv loyihalari bir nechta fan sohalarini ham qamrab olishi mumkin;
 - 5) loyiha texnologiyasidan faqat yuqori sinflarda foydalanish mumkin;
 - 6) loyiha texnologiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi
5. Qaysi variantda sanalganlarning barchasi loyihaviy faoliyatning natijasi bo'la oladi?
 - a) taqdimot, lug'atlar, diktant;
 - b) kitobcha, test, maket;
 - d) sahna ko'rinishi, intervyu, klaster;
 - e) videorolik, insho, portfolio.
6. 5-7-sinflar uchun qanday loyiha ishlarini vazifa qilib topshirish mumkin?

7. 8-9-sinflar uchun qanday loyiha ishlarini vazifa qilib topshirish mumkin?

8. Amaldagi qaysi dastur va darsliklarga loyiha texnologiyasi bilan bog'liq topshiriqlar kiritilgan?

9. Loyiha ta'lim texnologiyasidan foydalanish ona tili ta'limiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

a) ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ijodkorlik, jamoada ishlash, tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi;

b) o'quvchini qiziqtirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi;

d) salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchini asosiy maqsaddan chalg'itadi;

e) samarasiz deb hisoblayman, an'anaviy dars o'tgan ma'qul.

10. Loyiha texnologiyasidan ona tili ta'limida foydalanish bo'yicha qanday ilmiy-metodik qo'llanmaga ehtiyojingiz bor?

a) loyiha namunalaridan iborat mashq daftariga;

b) o'quv-uslubiy qo'llanmaga;

d) elektron ta'lim resurslariga;

e) darslikdagi ma'lumotlar yetarli deb hisoblayman.

“Loyiha texnologiyasi haqida ma'lumotga egamisiz?”, degan birinchi savolga o'qituvchilarning 54 nafari “Ha, ma'lumotga egaman”, 23 nafari “Qisman xabardorman”, 15 nafari “Yo'q, ma'lumotga ega emasman” deb javob berishgan.

Ikkinchi savol ochiq turdagi savol bo'lib, unda ishtirokchilardan loyiha texnologiyasiga qisqacha izoh berish so'ralgan. Berilgan javoblar xilma-xil, bir birini takrorlamaydi. Ushbu savolga 6 ta o'qituvchi “Bilmayman”, 2 ta o'qituvchi “Ma'lumotga ega emasman” deb javob berishgan, 3 ta o'qituvchi savolni ochiq qoldirgan. Javoblar orasida “Muayyan mavzu bo'yicha olib boriladigan ijodiy ishlarning tashkil qilinishi bo'yicha yo'l-yo'riqlar”, “O'quvchilar mustaqil va jamoaviy biron mavzuda izlanishlari”, “Muayyan topshiriqlarni o'quvchilar mustaqil ravishda ijodiy bajarishlari”, “O'tilgan mavzu bo'yicha ma'lum bir muddatga berilgan topshiriqlar”, “O'quvchini ijodkorlikka, mantiqiy fikrlashga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beruvchi vosita”, “Ijodkorona yondashish va guruh bo'lib ishlash” kabi texnologiya mohiyatini qisman yoritib beruvchi variantlar bilan birga, “Dars ishlanmalari”, “Metodlar bilan ishlash”,

“Lug‘atlar bilan ishlash”, “O‘z sohasi bo‘yicha ishlash”, “Kreativ fikrlash”, “Axborot texnologiyalari”, “AKTdan foydalanib dars o‘tish”, “Ko‘rgazmali qurollar bilan ishlash” singari to‘g‘ri javobdan ancha uzoq bo‘lgan variantlar ham mavjud. Shuningdek, javoblarni tahlil qilish jarayonida aksariyat o‘qituvchilar texnologiya deganda yaxlit jarayonni emas, faqatgina ishning natijasini ko‘z oldiga keltirishlari ma‘lum bo‘ldi, chunki javoblar orasida taqdimot, videorolik, devoriy gazeta kabi javoblar ham talaygina.

Uchinchi savolda ishtirokchilarga “Berilgan topshiriqlardan qaysi birini loyiha texnologiyasi uchun mos deb hisoblaysiz?”, degan savol bilan murojaat qilingan. O‘qituvchilarning eng katta qismi (32 nafar) “So‘z turkumlarini klaster yordamida tarmoqlash” variantini tanlagan. 20 ishtirokchi “Matnni o‘qish va qayta hikoyalash”, 25 ishtirokchi “Berilgan matnni sintaktik jihatdan tahlil qilish” deb javob bergan. To‘g‘ri javob hisoblangan “Shevaga oid so‘zlar lug‘atini tuzish” varianti esa eng kam ko‘rsatkichga ega – 15 kishi tomonidan tanlangan. Ko‘rinadiki, ko‘pchilik o‘qituvchilarda texnologiya tushunchasi va grafik organayzerlar (klaster va boshqalar) o‘zaro assotsatsiya uyg‘otadi.

“Keltirilgan ma‘lumotlardan qaysi biri loyiha texnologiyasi uchun tegishli emas deb hisoblaysiz?”, degan to‘rtinchi savol bir nechta javoblarni tanlashga asoslangan bo‘lib, ko‘rsatkichlar quyidagicha:

1. O‘quvchilar topshiriqni individual yoki jamoaviy tarzda bajarishlari mumkin – 19 ta. (To‘g‘ri fikr. Loyiha ishlari yakka, sherikchilik, guruh, jamoada ishlashga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin).

2. O‘quvchilar faoliyati erkin yo‘lga qo‘yiladi, loyiha bajarish muddati aniq belgilanmaydi – 23 ta. (Notog‘ri fikr. O‘quvchilar mustaqil va erkin faoliyat olib borsalar-da, loyiha bosqichlari belgilangan reja asosida amalga oshiriladi, loyihani topshirish muddati oldindan aniq belgilab olinadi.)

3. Loyiha natijalari o‘quvchilarni yakuniy baholash uchun asos bo‘la olmaydi – 23 ta. (Noto‘g‘ri fikr. Puxta o‘ylangan, aniq maqsad asosida tashkil etilgan o‘quv-loyihaviy faoliyat natijasi o‘quvchilarni choraklik, yillik baholash uchun asos bo‘lishi mumkin.)

4. O'quv loyihalari bir nechta fan sohalarini ham qamrab olishi mumkin – 6 ta. (To'g'ri fikr.)

5. Loyiha texnologiyasidan faqat yuqori sinflarda foydalanish mumkin – 39ta. (Notog'ri fikr. Ayrim adabiyotlarda shunday fikrlar kuzatiladi, lekin sodda ko'rinishdagi loyihalar bilan boshlang'ich sinflarda ham ishlash mumkin.)

6. Loyiha texnologiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi – 9 ta. (To'g'ri fikr.)

Demak, 2-, 3- va 5-raqamda berilgan fikrlar loyiha texnologiyasining asosiy xususiyatlariga zid keladi, qolgan fikrlar esa to'g'ri. Mazur savolning natijalardan ko'rishimiz mumkinki, o'qituvchilarning ko'pchiligi loyiha ta'lim texnologiyasining asosiy tamoyillaridan bexabarlar.

Navbatdagi beshinchi savolda “Qaysi variantda sanalganlarning barchasi loyihaviy faoliyatning natijasi bo'la oladi?”, deya so'ralgan edi. 94 o'qituvchining 31 nafari “Taqqimot, lug'atlar, diktant” variantini tanlashni ma'qul ko'rgan. “Kitobcha, test, maket” javobini 27 nafar, “Sahna ko'rinishi, intervyu, klaster” javobini 16 nafar “Videorolik, insho, portfolio” javobini 18 nafar ishtirokchi to'g'ri deb hisoblagan. 1-, 2-, 3-variantlardagi diktant, test, klaster kabi ish turlari o'quv-loyihaviy faoliyatning natijasi bo'la olmaydi. Birinchi variant ko'pchilik tomonidan tanlanganligining sababi, o'qituvchilar javobdagi taqqimot ish turiga suyangaliklarida deb o'ylaymiz. Amaliyot davomida o'qituvchilar o'quvchilarga mustaqil ish sifatida, asosa, taqqimot tayyorlashni vazifa qilib berishlarining guvohi bo'ldik.

“5 – 7-sinflar uchun qanday loyiha ishlarini vazifa qilib topshirish mumkin?”, degan 6-savolga ishtirokchilarning o'zlari fikr va tavsiyalarini yozishlari talab qilingan. 5 nafar o'qituvchi savolga “Bilmayman” deb javob bergan bo'lsa, 6 nafari ochiq qoldirgan. Qolgan ishtirokchilarning deyarli barchasi savolga to'g'ri va to'liq javob berishga harakat qilgan. Javoblar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, o'qituvchilar 5 – 7-sinflarda taqqimot, devoriy gazeta, insho, intervyu, so'rovnoma tayyorlash, videorolik, sahna ko'rinishi, lug'at, kitobchalar yaratish kabi loyihalar ustida ishlashni samarali deb hisoblaydilar.

7-savol 6-savolning mantiqiy davomi bo'lib, unda “8 – 9-sinflarga qanday loyiha ishlarini vazifa qilib topshirish mumkin?”,

deya so'ralgan. Ishtirokchilar orasidan 8 nafari "Bilmayman" deb javob bergan, 7 nafari savolni javobsiz qoldirgan. Berilgan javoblar orasida 6-savolda keltirilgan misollarning takrorlangan holatlari bor. O'qituvchilarning aksariyati "Yuqori sinfga murakkabroq vazifa tanlash kerak", "Jiddiy o'ylab ko'rish kerak", "Yoshiga mos topshiriq bo'lishi lozim", "Iqtisodiy foyda keltiradigan loyiha bilan ishlash kerak", "Jamoaviy loyihalar ma'qulroq" kabi mujmal javoblar bilan cheklanishgan. Shu bilan bir qatorda, portfolio, videorolik tayyorlash, tanqidiy-tahliliy topshiriqlar berish, neologizmlar lug'atini yaratish, dars ishlanma yozish, maket, logotip yaratish kabi asosli javoblar ham talaygina. Mazkur savolga berilgan javoblarni tahlil qilish jarayonida o'qituvchilar qaysi sinfdan qanday turdagi o'quv-loyihalari bilan ishlash, loyiha uchun mavzu tanlashda o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha yetarli ma'lumotga ega emasliklarini kuzatishimiz mumkin.

8-savol ("Amaldagi qaysi dastur va darsliklarga loyiha texnologiyasi bilan bog'liq topshiriqlar kiritilgan?") o'qituvchilarning dastur va darsliklardagi loyihaviy topshiriqlar bilan qay darajada tanish ekanliklarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, 13 nafar o'qituvchi "Bilmayman"; 1 nafari "Menimcha, kiritilmagan"; 1 nafari "Savolga tushunmadim" deb javob bergan. Javoblar orasida "Ona tili darsliklarida", "Barcha yangi darsliklarda", "Ko'plab sinflarda mavjud" kabi to'liqsiz javoblar ham bor. Qolgan o'qituvchilar Milliy o'quv dasturi va yangilangan 6-7-10-sinf Ona tili darsliklarida loyihaga asoslangan topshiriqlar borligini qayd etib o'tishgan.

9-savol orqali o'qituvchilarning biz tadqiq etayotgan ta'lim texnologiyasi bo'yicha munosabatlarini bilishga harakat qildik – "Loyiha texnologiyasidan foydalanish ona tili ta'limiga qanday ta'sir ko'rsatadi?" – 92 o'qituvchidan 71 nafari "Ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ijodkorlik, jamoada ishlash, tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi", deb hisoblaydi. 16 nafar o'qituvchi "O'quvchini qiziqtirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi" javobida to'xtalgan. Afsuski, "Salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchini asosiy maqsaddan chalg'itadi" (2 nafar), "Samarasiz deb hisoblayman, an'anaviy dars o'tgan ma'qul" (3 nafar) javoblarining ham tanlanganligi ona tili darslarini jonli va

qiziqarli tashkil etishni rad etuvchi o'qituvchilar borligidan dalolat beradi.

10-savol tadqiqotimiz yuzasidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan asosiy maqsad-vazifalarni belgilab olishga yordam beradi. "Loyiha texnologiyasidan ona tili ta'limida foydalanish bo'yicha qanday ilmiy-metodik qo'llanmaga ehtiyojingiz bor?", degan savolga 40 nafar ishtirokchi "Loyiha namunalaridan iborat mashq daftariga" javobini tanlab, amaliyotda qo'llash uchun zaruriy manba kerakligini bildirib o'tishgan. O'qituvchilardan 25 nafari o'quv-uslubiy qo'llanmaga, 17 nafari elektron ta'lim resurslariga ehtiyojlari borligini qayd etib o'tishgan. 10 nafar o'qituvchi esa darslikdagi ma'lumotlarni yetarli deb hisoblaydi.

So'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'lishicha, aksariyat ona tili o'qituvchilari loyiha ta'lim texnologiyasi, uning til ta'limidagi o'rni, ona tili darslarida loyihaga soslangan o'quv-topshiriqlardan foydalanish, o'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini tashkil etish bo'yicha yetarli ma'lumotga ega emaslar. Ba'zi o'qituvchilar har qanday ijodiy topshiriq loyihaviy faoliyat, o'quvchi tomonidan tayyorlangan har qanday vazifa o'quv-loyihaviy faoliyat natijasi bo'la oladi, deb hisoblaydilar. Lekin loyiha texnologiyasini qo'llash, unda mavzuni tog'ri tanlash, maqsad va vazifalarni belgilashga qo'yilgan o'ziga xos talablar borki, bular haqida darslik va o'qituvchi kitoblarida ma'lumot berilmagan. So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchilarning katta qismi sinflar kesimida qanday o'quv loyihalari bilan ishlash xususida to'liq ma'lumotga ega emaslar. Ishtirokchilar orasida loyiha texnologiyasini samarasiz, o'quvchini maqsaddan chalg'ituvchi vosita deb o'ylovchi, mazkur texnologiyadan ona tili ta'limida foydalanish bo'yicha darsliklardagi ma'lumotlarni yetarli deb hisoblovchilar ham bor. Biroq, o'qituvchilarning 43,5%i loyiha namunalaridan iborat mashq daftariga ehtiyojlari borligini bildirib o'tishgan. So'rovnoma natijalari va o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr hamda takliflar tadqiqotimiz maqsadini yanada aniqlashtirib olishda, fan o'qituvchilari ehtiyojini hisobga olgan holda amaliyot uchun zarur metodik qo'llanma, mashq daftarlari ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.